



HODISA SODIR BO'LGAN JOYNI KO'ZDAN KECHIRISH TAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Jo'rayev Farhodjon Maxmudjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi

Yo'ldoshev Ilhom Abduljalil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8164467>

ARTICLE INFO

Received: 10th July 2023

Accepted: 15th July 2023

Online: 19th July 2023

KEY WORDS

Taktika, xolis, videoyozuv, fakt, ashvoviy dalil, murda, statik, dinamik, qoziq, sement, alkafon.

ABSTRACT

Mazkur maqolada asosiy va muhim tergov harakatlaridan biri bo'lgan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'tkazish takikasi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda uchraydigan protsessual va taktik muammolar hamda ularga yechim bo'la oladigan kerakli tavsiyalarni ham ko'rish mumkin.

So'ngi yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligimizni takomillashtirishga oid bir qancha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (*keying o'rinlarda JPK*)ning 91-moddasi to'rtinchi qismida ko'rsatilgan videoyozuv orqali qayd etishi shart bo'lgan ayrim tergov va protsessual harakatlar doirasi kengaytirildi. 2021-yilning 18-fevral kuni "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi munosabati bilan milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizga yangi institutlar, ya'ni "ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish", "jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv", "aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv" joriy etildi. Bu esa o'z navbatida davlatimizda jinoyat-protsessual qonunchiligiga o'zgartirish kiritish orqali xalqaro standartlarga mos mustahkam qonunchilikni yaratilayotganligidan daololat beradi.

Yuqorida takidlab o'tilgan masalar bilan bir qatorda ayrim tergov harakatlarini takomillashtirib borishimiz samarali tergovni ta'minlovchi vosita sifatida o'z aksini topadi. Masalan, amaliyotda eng ko'p o'tkaziladigan va muhim tergov harakatlaridan biri bo'lgan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining taktikasini hozirgi zamon talablariga mos darajada rivojlantirishimiz lozimdir. Chunki, zamon inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetmagan holda yangi texnologiyalardan foydalanishni hamda chet el tajribasi bilan ko'nikmalar almashinuvini talab qiladi.

Jinoyatni ochish va jinoyatchilarni fosh etishda o'tkaziladigan tergov harakatlari ichida hodisa joyini ko'zdan kechirish alohida o'rinni egallaydi. Hodisa joyini ko'zdan kechirishning ahamiyati bu tergov harakatining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan bog'liq. Tergovchi



voqea sodir etilgan joyda haqiqatdan ham jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligi holati va unga sabab bo'lgan holatlarni aniqlash bo'yicha tergov harakatlari o'tkazadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati taktikasini o'rganishdan avval, **“hodisa”** va **“ko'zdan kechirish”** tushunchalariga izoh berish lozim.

Hodisa — tabiatda, jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarish (masalan, mudhish hodisa, quvonchli hodisa, baxtsiz hodisa, kutilmagan hodisa va boshqalar). Shuningdek, biror narsaning voqelanish fakti hisoblanadi [1].

Ko'zdan kechirish (jinoyat huquqi) — tergov harakati; jinoyat izlari va boshqa ashyoviy dalillarni topish, sodir bo'lgan hodisa tafsilotlarini va jinoyat ishi uchun ahamiyatli boshqa holatlarni aniqlash maqsadida surishtiruvchi, tergovchi, ba'zan sud o'tkazadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchilikka binoan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligini yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda hodisa sodir bo'lgan joy jinoyat ishi qo'zg'atishdan oldin ham ko'zdan kechirilishi mumkin[3].

Kattta maydonlarni va binolarni ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ularning har biri kamida ikkita xolis ishtirokida ko'zdan kechirilishi lozim. Lekin ayrim hollarda xolislarini topishni hamda topilgan taqdirda ham ularni tergov harakatida ishtirok etishlarini ta'minlashning iloji bo'lmaydi. Ular quyidagilar hisoblanadi:

Birinchi holatda, hodisa sodir bo'lgan joy sifatida tog', o'rmon, adir, cho'l, yaylov, dasht, dala va boshqa ovloq joylar bo'lib, xolislarini hodisa sodir bo'lgan joyning yaqin atrofidan topib bo'lmaydigan bo'lsa;

Ikkinchi holatda, tungi vaqtda ya'ni, kech soat 22:00 dan ertalab soat 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida jinoyat haqida berilgan habar yuzasidan hodisa sodir bo'lgan joyga tergov-tezkor guruhi chiqib, tergovchi tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vaqtida fuqarolarning dam olish vaqti bo'lganligi sababli ularni ko'chadan topishni iloji bo'lmaydi. Shu hodisa sodir bo'lgan joyni xolislarisiz ko'zdan kechirishga majbur bo'lishi yoki bo'lmasa, bayonnomada aslida ko'zdan kechirishda ishtirok etmagan shaxslarning familiya, ismi, sharifi yozilib boshqa shaxslar tomonidan imzolanishi kabi salbiy holatlar uchrab turibdi. Tergovchi protsessual qoidalarga rioya etish niyatida fuqarolarning dam olish vaqtini xalaqit qilishi yoki cheklashi maqsadga muvofiq emas;

Uchinchi holatda, kunning istalgan vaqtida nafaqat hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish balki, boshqa xolislar ishtirok etishi shart bo'lgan tergov harakatlarni o'tkazish chog'ida fuqarolarni tergov harakatida ishtirok etishga taklif qilingan paytda ularning qilayotgan vajlari (misol uchun, ish joyiga kech qolayotganliklari, zarur ishlari borliklari va eng asosiyli ularning keyin ya'ni dastlabki tergov va sudda ham tinchlik bermasdan chaqirtirish ehtimoli borligi) hamda tergovchi fuqarolarni ishtirok etishga majbur qila olmasligi sababli xolislarisiz yoki yasama xolislar ishtirokida amalga oshiriladi. Shu sababli, yuqoridagi hollatlar yuz bergan vaqtda xolislarining topish yoki ta'minlashning imkoni bo'lmaganligi natijasida protsessual qoidalarning buzilishini oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi JPKning 91-moddasi to'rtinchi qismining birinchi, ya'ni “O'ta og'ir jinoyat bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish” bandini olib tashlamagan holda



yangi band sifatida ya'ni "Xolislar ishtirok etishi shart bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazishda xolislarini topish yoki protsessual harakatda ularning ishtirokini ta'minlashning iloji bo'lmasa" degan bandini qo'shish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qoidaning qonunda mustahkamlab belgilanishi videoyozuvga olish orqali tergov harakatlarini protsessual qoidalarga rioya etgan tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish harakatining natijali bo'lishi uchun tergovchi puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim, bunday tayyorgarlik keyinchalik ishni muvofaqiyatli yakunlash imkoniyatini beradi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi, tergovchining hodisa joyiga chiqishiga qadar o'tkazadigan tayyorgarlik harakatlari, ikkinchisi, tergovchining hodisa joyiga borgandan keyin o'tkazadigan tayyorgarlik ishlari.

Hodisa joyiga chiqqunga qadar o'tkaziladigan tayyorgarlikda tergovchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Birinchidan, hodisa joyidagi jabrlanuvchilarga yordam berish chorasini ko'rishi, hodisa joyida tartib o'rnatish masalalarini hal etishi kerak. Bosqinchilik, talonchilik, o't qo'yish va h.k. jinoyatlarning sodir etilishi to'g'risidagi xabarni olgan tergovchi, darhol hodisa joyini ko'zdan kechirishga chiqishi va tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazishning tadbirlarini ko'rishi lozim.

Ikkinchidan, tergovchining hodisa sodir etilgan joyga yetib borishiga juda qisqa muddat talab etilsa, hodisa joyida ishtirok etish uchun tergovchi ichki ishlar organlariga hodisa joyiga zudlik bilan yetib borish to'g'risida xabar beradi. Tergovchining hodisa sodir bo'lgan joyga o'z vaqtida yetib [kelishida masofaning uzoqligi](#), transport vositasi bo'lmaganligi sababli u huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlariga tegishli ko'rsatma berishi mumkin. Tergovchi undan tashqar yana mavjud bo'lgan tergov-tezkor guruhi a'zolariga quyidagi topshiriqlarni beradi:

- a) hodisa joyini qo'riqlash, hech kimni hodisa joyiga kiritmaslik;
- b) hodisa joyidagi ashyoviy dalillarni qo'riqlash;
- v) hodisa joyidan topilgan izlarni qayd etishda ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlash;
- g) hodisa sodir etilgan vaqtda hozir bo'lgan shaxslarni aniqlash va tergovchi yetib kelgunga qadar bo'lib o'tgan holatlarni ular orqali aniqlash;
- d) tergovchi jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar olishi bilan jinoyatni sodir etgan shaxs to'g'risida ham ma'lumot olsa, darhol uni qidirib topish to'g'risida militsiya xodimlariga topshiriq berishi lozim;
- e) tergov chemodanining to'liqliligini tekshirish. Tergovchi hodisa joyiga chiqishdan oldin tergov chemodanida barcha asbob-uskunalarining borligini tekshirib ko'radi. Ko'p hollarda tergov chemodanida hodisa joyini ko'zdan kechirish uchun zarur bo'lgan ba'zi texnikaviy vositalar (zaryadkalangan foto va videoapparat, daktiloplyonka va poroshoklar) bo'lmasligi mumkin. Shu bois tergov chemodanini yetishmaydigan texnika vositalari bilan to'ldirish lozim. Zarur hollarda qo'shimcha qidiruv texnikaviy vositalarni, masalan, metallardan yasalgan predmetlarni qidirib topish uchun mo'ljallangan texnika vositalarini hozirlashi zarur.

Tergovchilarning ixtiyoridagi tergov chemodani quyidagi bo'limlardan iborat:

– birinchi bo'lim izlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan vositalardan iborat bo'lib, ular barmoq izlari, oyoq izlari, transport va buzish quollaridan qoladigan izlarni qidirib topishda, qayd etish va olishda foydalaniladigan vositalarni o'z ichiga oladi. Bu bo'limda turli



poroshoklar, selikon pastasi, K-18, daktiloplyonkalar, gips, daktiloskopik chytoka kabi texnika vositalari bo'ladi;

– ikkinchi bo'limda bayonnoma, turli sxemalar, hodisa joyining rejasini tuzish uchun zarur predmetlar bo'ladi;

– uchinchi bo'lim, hodisa joyidan topilgan ashyoviy dalillarni suratga olish, o'lchash uchun mo'ljallangan vositalardan iborat;

– to'rtinchi bo'lim, ashyoviy dalillarni qidirib topish uchun foydalanadigan asbob-uskunalar bo'limi bo'lib, unda metall predmetlarni qidirish, ko'milgan murdalarni topish uchun mo'ljallangan, tokni o'lchash indikatori va shu kabi vositalar bo'ladi. Tergov chemodanida mavjud bo'lgan bu texnika vositalari hodisa joyini ko'zdan kechirishda ashyoviy dalillarni qidirib topish va olishda keng ko'lamda foydalaniladi.

Uchinchidan, hodisa joyiga chiqqunga qadar tergovchi murdani o'likxonaga olib borish, [shuningdek](#), turli buyumlar, ashyoviy dalillarni olib ketish uchun zarur bo'lgan transport vositasini hozirlash chorasini ko'rishi, prokuratura, ichki ishlar, sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlik qilishi zarur.

Tergovchi hodisa joyiga chiqqunga qadar boshqa tayyorgarlik ishlarini ham amalga oshirishi lozim. Hodisa joyiga borgandan keyin tergovchiga hodisa joyini ko'zdan kechirishga kirishishdan oldin ba'zi tayyorgarlik ishlarini o'tkazishga to'g'ri keladi. [Jumladan](#), hodisa joyidagi izlar, predmetlar va boshqa ashyoviy dalillarni qo'riqlash to'g'risida huquqbuzarliklar profilaktika inspektorlariga berilgan tegishli topshiriqlarning bajarilganligini tekshirib ko'rishi, mabodo bu topshiriq bajarilmagan bo'lsa, tergovchi bu masalani zudlik bilan hal etishi lozim. Ba'zi vaqtlarda hodisa joyini ko'zdan kechirishga kirishishdan oldin hodisa joyidan topilgan turli moddiy izlar va boshqa ashyoviy dalillarni qo'riqlash, agar yomg'ir, qor yog'ayotgan bo'lsa, ularning ustini yopish choralari ko'rish, hodisa joyini ko'zdan kechirish ishtirokchilarini huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish, ular qayerda turishi va qanday harakatlarni bajarishi lozimligi to'g'risida ko'rsatma beradi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning asosiy maqsadi – hodisaning kelib chiqish holatini bevosita ko'rish bilan mavjud iz, ashyoviy dalillarni topishdan iborat [4, B. 479]. Mavjud iz va ashyoviy dalillarni topishda mutaxassislarining ishtiroki ahamiyatlidir.

Tergovchi hodisa joyiga chiqishdan oldin, sodir etilgan jinoyatning xarakterini hisobga olgan holda o'zi va xolislardan tashqari, yana kimlarni ko'zdan kechirishga jalb etish masalasini hal etadi. Qonunchilikda surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko'rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechirilishi [3] belgilangan.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda mutaxassislarni jalb etish asosiy e'tiborni o'ziga jalb etadi. Tergovchi ko'zdan kechirishni o'tkazish jarayonida jinoiy hodisa turini hisobga olib (yong'in chiqish bilan bog'liq bo'lgan, yo'l-avtotransport hodisalari va h.k.), tegishli mutaxassislarni ko'zdan kechirish joyiga taklif etishni tashkil etadi. Qoidaga muvofiq mutaxassis tergovchiga hodisa joyini ko'zdan kechirishda yordam berish uchun taklif etiladi. U ko'zdan kechirish ishtirokchisi sifatida tegishli bayonnomani imzolaydi.



Hodisa joyini ko'zdan kechirishda tergovchi tomonidan taklif etiladigan mutaxassislardan ekspert-kriminalistika xodimlariga katta e'tibor beriladi, chunki ular jinoyatni ochishda katta yordam beradi.

Ekspert tergovchining topshirig'iga muvofiq maxsus usullarni qo'llab hodisa joyidagi izlar va boshqa ashyoviy dalillarni qidiradi, aniqlaydi, qayd etadi va ko'chirib oladi, shuningdek, ashyoviy dalillarni olish va qadoqlash (upakovka qilish)da zarur bo'lgan masalalarni hal qilishga yordam beradi. Ular texnika vositalarini qo'llash bilan chegaralanib qolmay, hodisa joyini ko'zdan kechirishda tergovchiga amaliy yordam ko'rsatishni ham amalga oshiradi.

Kriminalistlar hodisa joyini ko'zdan kechirishdagi harakatlari tergovchi va tezkor-qidiruv xodimlarining harakatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda olib boriladi. Ko'p hollarda ularning bergan fikrlari jinoyatni ochishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, mutaxassis izlar yo'lakchasining [elementlarini tahlil qilib](#), tergovchiga jinoyatchining harakati, qanday yurganligi, yugurganligi, bir joyda turganligi to'g'risida muhim ma'lumot berishi mumkin.

Shu bilan birgalikda tergovchi hodisa joyida to'satdan ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining paydo bo'lib qolishi va ularga hujum qilib qolish xavfining ham oldini olish chorasini ko'rib qo'yishi lozim bo'ladi.

Agar hodisa ochiq joyda yuz bergan bo'lsa, tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirishga uning chegarasini belgilab olgandan keyin kirishadi. Shuni ham nazarda tutish joizki, jinoyat sodir etilganligi haqida habar albatta, faqat shahar joylarda emas balki, tog', adir, cho'l, yaylov, dasht, dala va boshqa ovloq joylarda sodir etilgan bo'lsa hodisa sodir bo'lgan joyga yetib kelgan tergov-tezkor guruhiga hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda qo'zg'almas obyektning yo'qligi – bu o'z o'rnida nafaqat ko'zdan kechirishda muamoni yuzaga keltirishi balki, hodisa joyining yo'qolishiga olib keladi. Masalan, qotillik jinoyati to'g'ida sodir eilgan va u yerda hech qandan daraxtlar ham mavjud emas. Tergovchi vaziyatdan oson chiqib ketish yo'lini izlaydi ammo qiynaladi va vaziyatga yechim topgan paytda qimmatli vaqtini ancha qismini boy bergan bo'ladi. Ushbu holatga yechim sifatida tergovchi hodisa sodir etilganligi yuzasidan habar kelib tushgan vaqtda hodisa qayerda sodri etilganligi yuzasidan zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak va o'zi bilan qo'ziq yoki shunga o'xshash jismni olishi lozim yoki hodisa sodir bo'lgan joyning ma'muriyatidan hamda aholisida toppish choralarini ko'radi va uni hodisa sodir bo'lgan joyga yaqinroq masofada o'rnatishi lozim. Bunda ham qoziqni o'rnatishni o'ziga yarasha tartibi bor. Uning tartibi ya'ni oldin yer azgina qazilib sement quyilib qoziq o'sha yerga o'rnatilgan holda qotiriladi. Bu o'z navbatida azgina vaqtdan so'ng hodisa joyining fasllar almashinuvi natijasida ayrim ob-havo sharoitlarida(masalan, quyosh, qor yog'ishi yoki ko'chishi, yomg'ir, shamol, sel, zilzila va boshqa tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar) hodisa joyining yo'qolishini oldini olish maqsadida asosan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, hodisa sodir bo'lgan joyga boshqa insonlarning kelib hodisa joyini yo'qolishiga qiladigan harakatlarini oldini olish maqsadida, o'rnatilib, qotirilgan qoziq o'rniga balandligi taxminan 1-1,5 m bo'lgan temirni sement bilan qotirish va u yerga hodisa sodir bo'lgan joy sifatida axborot beruvchi xususiyatga ega bo'lgan "Hodisa sodir bo'lgan joy. Yaqinlashmang va zarar yetkazmang" degan mazmunda yozuv qo'yilishi tergovchining maqsadiga erishishiga yordam beradi.



Ko'zdan kechirish statik va dinamik uslublarda amalga oshiriladi. Hodisa joyini statik usulda ko'zdan kechirish deganda, hodisa joyi to'liq va ayrim topilgan ashyoviy dalillar ko'zdan kechirish vaqtida qanday holat va qanday ko'rinishda bo'lsa, ularni shu holatda, o'zgartirmasdan ko'zdan kechiriladi. Ko'zdan kechirish ishtirokchilari ham hodisa holatini yoki ashyoviy dalillarni dastlabki holatini o'zgartirishi mumkin emas. Bu uslub hodisa joyidagi ashyoviy dalillar va izlarning o'rni va joylashishi, turli obyektlar tavsifini (murdaning umumiy holati, qon izlari shakli va h.k.) qayd etish imkoniyatini beradi.

Hodisa joyini dinamik uslub asosida ko'zdan kechirishda hodisa joyi batafsilroq tekshiriladi. Masalan, kvartirada sodir etilgan qotillik jinoyati bo'yicha bunday qismlarga bir yoki bir necha xonalarda jinoyatchi buzib kirgan eshik, buzish quroli, murda va qon izlari, qimmatli buyumlar saqlangan mebellarning sindirib ochilgan joyi, sigareta qoldiqlari, pol yoki eshik va romlarda qoldirilgan oyoq va qo'l izlari hisoblanishi mumkin.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda har bir predmet-obyekt takroran tekshirilmasligi uchun avval statik, so'ng dinamik usul bilan tekshirilishi va ishga ahamiyatli bo'lgan boshqa predmetlar esa nazardan chetda qolib ketmasligi lozim. Bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun markazdan chetga yoki chetdan markazga harakat qilib ko'zdan kechirishni o'tkazish lozim. Agar hodisa joyida jinoyatchi ochgan seyf va murda mavjud bo'lsa, ko'zdan kechirishni markazdan, ya'ni o'sha obyektlardan [boshlab keyin chetga](#), atrofqa qarab harakat qilgan ma'qul hisoblanadi. Bunday vaqtlarda tergovchi markazdan chekkaga qarab harakat qilganda, qanday izlar ish uchun ahamiyatli, qanday predmetlarni qidirib topish zarurligini biladi.

Agar hodisa joyining markazi, masalan, o'g'irlik sodir etilgan binolar bo'lsa, bunday vaqtlarda ko'zdan kechirishni jinoyatchining kirish-chiqish joyidan, transport vositasining izlari va buzish qurollaridan qolgan izlarni ko'zdan kechirishdan boshlash ma'qul. Undan keyin bino eshigini buzishdan qolgan izlarni ko'zdan kechirish va jinoyatchilar o'g'irlik sodir etgan joyga o'tish va uni ko'zdan kechirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaqtlarda tergovchi jinoyatchilarning hodisa joyidagi harakat qilish navbatini aniqlab olish imkoniga ega bo'ladi. Tergovchi bir izdan keyingisiga o'tib, hodisa joyi markaziga yaqinlasha borib, bo'lgan ashyoviy dalillarni yig'ib boradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tergovchining asosiy vazifalaridan biri hodisa joyini ko'zdan kechirishni to'liq o'tkazish va uning natijalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Lekin tergov amaliyotlarida bunga ba'zan erishilmaydi. Buning sababi turlicha:

-birinchidan, tergovchining yetarli bilimga va tajribaga ega emasligi va kriminalistik texnikaviy vositalari bilan to'liq ta'minlanmaganligi;

-ikkinchidan, ob-havo sharoitining noqulayligi;

-uchinchidan, hodisa joyidan topilgan dalillarga ahamiyat bermaslik hisoblanadi.

References:

1. <https://savodxon.uz/izoh?hodisa>.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBzdan_kechirish.
3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. (10.06.2023 йилгача бўлган ҳолати) // <http://lex.uz> (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси).



4. Raxmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov: Darslik (to'ldirilgan va o'zgartirilgan ikkinchi nashri) – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.